HADISLAR VOSITASIDA YOSHLAR MA`NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna
Andijon Davlat Universiteti
"Umumiy pedagogika" kafedrasi o`qituvchisi
Po`latova Munisxon
Buloqboshi tumani 6-maktab
rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g`oyagina emas, balki tuyg`u hamdir. Bu tuyg`u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va hususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo`ladi. Ushbu maqolada hadislar vositasida yoshlarning ilm-fan cho`qqilarining egallashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi haqida so`z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: Ta`*lim-tarbiya, ilm-fan, milliy, hadis, hadisshunoslik, ma`naviy tahdidlar, milliylik, ma`naviyat, tashabbus, islom dini, payg`ambar, rivoyat, amal*

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОГО МНЕНИЯ МОЛОДЕЖИ ПОСРЕДСТВОМ ХАДИСОВ.

Аннотация: *Представление человека о том, к какой национальности он принадлежит, является не только представлением, но и чувством. Это чувство воплощается в человеке в виде понимания и ощущения истории, духа, современного положения и особенностей нации. В данной статье говорится о приоритете национальных и общечеловеческих ценностей в достижении молодыми людьми вершин науки с помощью хадисов.*

Ключевые слова: *Образование, наука, национальность, хадисоведение, хадисоведение, духовные угрозы, национальность, духовность, инициатива, исламская религия, пророк, повествование, практика.*

Sharq allomalari o`z asarlarida farzandlarga ta`lim-tarbiay berish, uni ma`rifatu madaniyatga e`tabor berish muammolariga e`tabor qaratganlar. Ularning yoshlarni halol mehnat bilan yashashga undaydigan , xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtgfa naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, to`g`ri xulosa chiqaradigan insonlar bo`lishga undovchi hayotiy qarashlari, hikmatlarining ahamiyati beqiyosdir.

Imom Buxoriyning "al-Adab al-mufrad" nomli asarida payg`ambarimiz 9alayhissalom0ning insonlarni odob-ahloqqa chorlovchi go`zal hadislari jamlangan.

Hadis ilmining ibtidosi payg`ambar alayhissalomning nubuvvatlik davridan boshlangan. Ul zot hali hayot ekanlarida soz`lariyu qilgan amallarini avvalboshda eshitiash va mushohada qilishbilan chegaralangan bo`lsa, keyinroq ular rivoyat qilina boshlangan. Payg`ambardan hadis eshitgan sahobalar ham har-xil sharoitda bo`lganlar. Qay birlari

ko`proq va qaysidirlari kamroq eshitganlar. Bu holat esa naql va rivoyatlarga ehtiyoj oshishiga sabab bo`lgan.

Payg`ambar alyhissalom vafotlaridan keyin sahobalar ko`pdan-ko`p islomiy o`lkalarga tarqaluib ketgach, hadislarni bilishga ehtiyoj va zarurat g`oyat ortgach, bu ehtiyoj yana da kuchayib, xilma-xil shar`iy ehahkomlarni bilish, yillar o`tishi bilan Qur`oni karim ma`nolarini idrok etib, puxta o`zlashtirish hatot taqozosiga aylanib borgan.

Ulamolar orasida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan keyin yuz yildan ko‘proq vaqtgacha hadislar yozilmasdan faqat odamlar xotirasida saqlab kelingan, degan gap bor. Bu holat besh asrga yaqin davom etgan, deyiladi. Ammo hadislarning yozilishi Nabiy sollallohu alayhi vasallamning davrlaridayoq boshlangan. Xatib Bag‘dodiy (392-463/1002-1074) shu mavzuda izlanish olib borib, “Taqyidul ilm” asarini ta’lif etgan.

Shu vaqtgacha hadislarning yozilishi va tasnif etilishi haqidagi gumonlar saqlanib kelgan. Ulamolar birinchi bo‘lib Ibn Shihob Zuhriy (vaf.124/742 y.) hadis yozib, kitob qilgan, degan. Bu fikr taxminan 143/760 yilgacha hukmronlik qilgan.

To‘g‘ri, Payg‘ambar alayhissalom davrlarida aksariyat sahobalar eshitgan hadislarini yod olib, xatga tushirmagan. Chunki o‘sha davrda arablarda katta hajmdagi doston va she’rlarni yod olib, xotirada saqlash juda ommalashgan oddiy holat edi. Ilk davrda hadislar keng ko‘lamda yozma ravishda jamlanmaganiga ko‘pchilikning xat-savodi bo‘lmagani va yozish qurollari keng tarqalmagani sabab bo‘lgan. Shuningdek, hadislar Qur’oni karimga aralashib ketishi ehtimoli bo‘lgani uchun ham kitobat qilinmagan. Sahobalar hadislarni asosan Payg‘ambar alayhissalomning so‘zlari, ishlari, biror tadbirni ma’qullagan yoki undan qaytarganlarining shohidi bo‘lish asnosida o‘rgangan.

Xatib Bag‘dodiydan oldingi ulamolar vaziyatni chuqur tahlil qilmasdan hadislarni birinchi bo‘lib Ibn Shihob Zuhriy yozib kitob qilgan, deb bilgan. Shunday fikrda nuqson borligini bilsa-da, Abu Tolib Makkiy (vaf. 386/996 y.), Imom Zahabiy (673-748/1274-1348), Ibn Hajar Asqaloniy (773-852/1372-1449), Taqiuddin Maqriziy (764-845/1364-1442) va boshqa keyingi allomalar uni qo‘llab-quvvatlagan. Ulamolar Ibn Shihobdan oldingi sahoba va tobeinlarning hadis yozuvlari bo‘lganini bilgan, lekin ular tartibsiz holdaligi sabab, yuqoridagi fikrga kelgan.

Aslida hadislarning yozila boshlagani kichik tobeinlar tabaqasidan bo‘lgan Imom Zuhriydan oldin ham mavjud bo‘lgan.

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamning sahobalari orasida u zotdan mendan ko‘ra ko‘proq hadis rivoyat qilgan hech kim yo‘q. Bundan Abdulloh ibn Amr mustasno, chunki u yozar, men esa yozmasdim” *(Buxoriy rivoyati)*.

Makka fath qilinganda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xutba qildilar. Yamanlik Abu Shoh degan kishi turib: “Menga yozib bering, ey Allohning Rasuli!” dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Abu Shohga yozib bering”, dedilar”.

(Hadis roviylaridan biri Valid ibn Muslim aytadi:) “Avzoiyga: “Menga yozib bering, ey Allohning Rasuli!” degani nimani anglatadi?” dedim. U: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitgan o‘sha xutbani”, dedi” *(Buxoriy rivoyati)*.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamning dardlari kuchaygach, “Menga yozadigan narsa keltiring, sizga bir bitik yozib beraman, undan keyin adashmaysiz”, dedilar” *(Buxoriy rivoyati)*.

Abdulloh ibn Amrdan rivoyat qilinadi: “Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitgan har bir narsani yodlash uchun yozib yurardim. Qurayshliklar: “Sen Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitgan har bir narsani yozib yurasan. Rasululloh ham inson, g‘azablanganlarida ham, xursand bo‘lganlarida ham gapiradilar” dedi. Yozishdan to‘xtadim. Buni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga eslatganimda, “Jonim qo‘limda bo‘lgan Zot nomi bilan qasam ichamanki, mendan haqdan boshqasi chiqmaydi”, dedilar” *(Ahmad rivoyati)*.

Asar shu tariqa ilm yozgan yoki yozishga buyurgan sahobalarning rivoyatlari haqidagi bob bilan davom etadi. Ularning ham aksariyati sahihdir. Chunki bu hadislar “Sihoh”, “Sunan” turkumidagi va boshqa asarlarda keltirilgan.

Shundan so‘ng, o‘z sanadi bilan imom va katta tobein degan darajaga yetishgan tobeinlardan rivoyat qilingan xabarlar keladi. Ular hadis yozgan, shogirdlariga nafaqat qayd etib borishga ruxsat bergan, balki shu ishga undagan ham.

Tobeinlardan keyingi asrda ilm yozilishi kengayishiga sabab shuki, hadis rivoyatlari keng tarqala boshladi, sanadlar uzaydi. Rivoyat qiluvchilarning ismi, kunya va nasablari ko‘paydi. Lafzdagi iboralar turlicha bo‘lib, ularni yodda saqlash qiyinlashdi. Hadisni yodda saqlashdan ko‘ra yozib borish ishonchliroq bo‘lib qoldi.

Ko‘rayapsizki, islomning boshida hadislarni ba’zida yozmaslikka, ba’zida esa yozishga ruxsat etilgan ekan. Shu bois ayrim sahobalargina hadislarni yozma ravishda qayd qilib borgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning kotiblarida sahifalar, ya’ni sahobalar yozib yurgan varaqlar bo‘lgan. Ular ko‘pchilik orasida tarqalmagan. Kitob qilib jamlash esa, islomning ikkinchi yuz yilligida boshlangan.

Hadis so`zi ba`zi manbalarda “xabar” ma`nosida ham keladi. Ta`kidlash joizki, hadislarni to`plash nihoyatda sermashaqqat mehnat bo`lgan. Bir hadisni roviysidan eshitish uchun ne-ne o`lkalarni kezish, cho`lu biyobonlardan o`tib, suvsizlik, oziqsizlikdan madorsizlanish azobini tortishga to`g`ri kelgan. Ilk islom davrida hadislarni to`plash va jamlash ilm ahlining, ilm toliblarining eng asosiy va sevimli mashg`uloti edi. Hadis to`plash borasida neki mashaqqat va qiyinchilik bo`lmasin, ular ilm tolibini xargiz maqsaddan qaytara olmas, ular barcha azoblarga dosh berar zarur fursatda xatto mol-mulkini shu yo`lda fido qilar edilar.

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (melodiy to`qizinchi) asrda bu borada mislsiz natijalarga erishilgan. Chunonchi, musulmon olamida eng nufuzli manbaalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to`plami mualliflari ham mana shu asrda yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, ushbu olti muhaddisning deyarli barchasi Markaziy Osiyo xalqlari vakillari edilar. Ular- imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, (810-870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj (819-874), Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy

(817-888), Imom Ahmad an-Nasoiy (830-915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja (824-886) kabi siymolardir. Ushbu muhaddislarning har biri hadis ilmiga beqiyos hissa qo`shgan allomalardir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti marhum Islom Karimov shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – “Al-Jome’ as-Sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba’ bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi”.

Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hadis (Al-jome`as-sahih). 1-2-jildlar.-T.:”O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 1997.
2. Mustaqillik:Izohli ilmiy-ommabop lug`at . Mualliflar: Abdullayev M., G.Abdurazzoqova va M.Abdullayeva umumiy tahriri ostida. T:Sharq, 2000.
3. Quronov M. Milliy tarbiya. Respublika ma`naviyat va ma`rifat kengashi. Milliy g`oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi.-T.:Ma`naviyat, 2007.
4. D.Raximdjonov, M.Muhammadsiddiqov. Ilm-ma`rifatning fazilatlari. Toshkent-2018.
5. Ubaydulla Uvatov. Muhaddislar imomi. Toshkent. “Ma`naviyat” 1998 yil.
6. Qodirxon Mahmudov. Hadislar haqida tushuncha. (maqola)